

BRIFING



BRIFING

Termiz shahar hokimining o'rinbosari Bunyod Jo'raev ishtirokida "Shahar hududida zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusida brifing o'tkazildi

Shahar hokimining o'rinbosari Bunyod Jo'raevning "Shahar hududida zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar" to'g'risidagi axboroti.

Termiz shahrida yo'l qurilishi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar borasida so'z yuritadigan bo'lsak, shu o'rinda istiqboldagi vazifalarni ta'kidlash joyiz, shahrimizdagi jami avtomobil yo'lining uzunligi 411,0 kilometrni tashkil etadi. Shundan umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'li 42,7 kilometr, ichki xo'jaliklararo avtomobil yo'li esa 368,3 kilometrga yetadi.

Joriy yilning dastlabki kunlaridan shahardagi mavjud avtomobil yo'llari qayta

xatlovdan o'tkazib chiqildi, shundan umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'lining 19,3 kilometr qismi yoki umumiy yo'lining 45,6 foizi, ichki xo'jalik yo'llarining esa, 157,4 kilometr qismi yoki umumiy yo'lining 42,7 foizi ta'mirtalab ahvoldaligi ma'lum bo'ldi.

Alohida davlat dasturiga kiritilmagan bu ta'mirtalab tuproq yo'llarni talab darajasida ta'mirdan chiqarish maqsadida zarur yoqilg'i, texnika va ishchi kuchi masalalarini hal qilgan holda, joriy yilning hozirga qadar shaharning "Pattakesar" mahallasi xududida 3 kilometr masofadagi tuproq yo'lini shag'allashtirish ishlari amalga oshirildi. O'tgan 2021 yilning o'zida shahar hududidagi 6 kilometrga yaqin umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'li qayta qurilib, foydalanishga topshirildi.

Avtomobil yo'llarini to'la ta'mirlash dasturiga muvofiq o'tgan yilda 43,9 kilometr ichki yo'l asfaltlashtirildi va bu borada yillik reja 109 foizga bajarilib, 25,0 milliard so'mlik mablag'lar o'zlashtirilishi hisobiga qariyb 50 kilometrga yaqin avtomobil yo'lining ravonligi yaxshilandi.

Shaharda tirbandliklarning oldini olish maqsadida hududdagi 8 ta zamonaviy svetofor qurilmali chorrahalarga o'rnatildi. Shuningdek, Sulton Saodat majmuasi ziyoratgohiga olib boruvchi avtomobil yo'lining 2 kilometri qayta rekonstruktsiya qilindi. Avtomobil yo'llarida yo'l-transporti hodisalarining oldini olish uchun shahardagi yo'l belgilari yangi intensiv, nur qaytaruvchi zamonaviy yo'l belgilariga almashtirildi. Shahar aholisiga qulaylik yaratish maqsadida, bir qator piyodalar o'tish joylariga yoritish chiroqlari va statsional kameralar o'rnatildi. Yo'llar va ko'chalarning ravonligi yaxshilangani barobarida tungi yoritish chiroqlari, velosiped yo'laklari va piyodalar yo'laklari qurildi.

Shahardagi avtomobil yo'l qismlarida jami 9 ta ko'prik mavjud bo'lib, ularning asosiy qismi zamonaviy og'ir yuk ko'taruvchi avtomobillar qatnoviga mo'ljallab qurilmaganligi, ko'pchiligining xizmat muddati o'tib ketganligi sababli ayni kunda mavjud ko'priklarning 3 tasi ta'mirtalab ahvolga kelib qolgan. Ohirgi 5 yil davomida shahardagi 4 ta ko'prik qayta ta'mirlandi.

Hurmatli Prezidentimizning tashabbusi bilan hayotga izchil tatbiq etilayotgan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari bugungi kunda shahar hududida barpo etilayotgan zamonaviy uy-joylar, ta'lim muassasalari, dam olish maskanlari-yu, qator xizmat ko'rsatish shoxobchalarining yangicha qiyofasida o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Bu borada har yili "Obod mahalla" dasturiga muvofiq alohida mahallalarda yo'l-transport infratuzilmasi, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha ob'ektlarini rivojlantirish bo'yicha dasturning amalga oshirish borasida, birgina shaharning "Dilnavo" va "Navbog'" ko'chalarida 4,2 km piyodalar va veloyo'laklar

qurilishi hamda shahar aholisining doimiy salomatligini ta'minlash maqsadida, 7 km.dan ortiq salomatlik yo'laklari barpo etilib, foydalanishga topshirilishi so'zimizning yaqqol isboti ekanligini ifodalaydi, deb o'ylayman.

Bugungi kunda erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklarimiz ham yetarli darajada deb uylayman, bu borada ushbu ishlarni uzviy davom ettirish maqsadida, joriy yilda Termiz shahrida zamonaviy avtomobil yo'llarini barpo etish maqsadida 11,1 km umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llarini rekonstruktsiya qilish hamda shahar xududida avtomobillarning tirbandligini oldini olish maqsadida, "Islom Karimov" va "Fidokor" ko'chalarini bog'lovchi 800 metr uzunlikdagi yangidan avtomobil yo'li qurilish ishlari boshlab yuborildi, bundan tashqari ichki avtomobil yo'llarini ta'mirlash dasturi tasdiqlanishi shahar mahallalardagi ta'mirtalab ichki ko'chalarining 38 km ta'mirlanishiga erishiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat !!!

Image not found or type unknown

